Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · “Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24320077

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

SANOAT KORXONALARI IQTISODIY SALOHIYATINI STATISTIK BAHOLASH USLUBIYATI

JALOLOV ILHOMJON ISOMIDDINOVICH

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Iqtisodiy statistika kafedrasi, katta o’qituvchi(DSc)

Annotatsiya. Mamlakatimizda biznes faoliyati rivojlanishi uchun tadbirkorlarga shu darajada ko‘p imkoniyatlar berilganki, korxona faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish uchun tartibli harakat talab qilinadi xolos. Hattoki, o‘z pul mablag‘lariga ega bo‘lmasdan turib ham tashqi omillarning yordami asosida korxona ochib tadbirkorlik qilish mumkin. Har bir korxonaning muvaffaqiyatli tadbirkorlik faoliyati mamlakat iqtisodiyotiga o‘zining katta hissasini qo‘shadi. Ularning salohiyatli bo’lishi, mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘sishga sezilarli ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Ushbu maqolada aynan sanoat korxonalari iqtisodiy salohiyatini statistik baholash uslubiyati ko’rib chiqilgan, hamda xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so’zlar: Sanoat korxonalari, iqtisodiy salohiyat, iqtisodiy indekslar, statistik ko‘rsatkichlar, texnologik salohiyatdan foydalanish indekslari, mehnat unumdorligi indekslari , statistik baholash.

Kirish. O‘zbekistonda sanoat korxonalari iqtisodiy salohiyatini statistik baholash metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha belgilangan vazifalar, avvalo, ishlab chiqarish quvvatlari, texnologik daraja, moliyaviy barqarorlik, eksport salohiyati va innovatsion faollik kabi ko‘rsatkichlar asosida kompleks baholash indikatorlarini ishlab chiqish, ularni raqamli axborot tizimlari bilan integratsiyalash hamda statistika idoralari faoliyatini zamonaviy tahliliy vositalar bilan boyitishga qaratilgan. Shu bilan birga, Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan

Published: 05.06.2026

Cite this article: Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich (2026). Sanoat korxonalari iqtisodiy salohiyatini statistik baholash uslubiyati. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320077

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

sanoat subyektlarining faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni real vaqt rejimida yig‘ish va qayta ishlash imkoniyatlarini yaratish, regionlar kesimida sanoat salohiyatining dinamikasini o‘rganishga doir geografik axborot tizimlaridan (GIS) foydalanish, shuningdek, xalqaro standartlarga mos statistik hisob-kitob metodologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Iqtisodiy salohiyat tushunchasini talqin qilish jarayonida salohiyat (potensial) tushunchasining ma’nosiga to‘xtalish ahamiyatli hisoblanadi. “Salohiyat” tushunchasi ma’lum bir maqsadlarga erishish uchun kerak bo‘ladigan va talab etiladigan ayrim vositalar yig‘indisining amalga oshirilish imkoniyatlari mavjudligidan tashkil topadi[4]. Bundan tashqari, iqtisodiy rivojlanish iqtisodiy salohiyatning yakuniy ko‘rsatkichidir. “Iqtisodiy rivojlanish” tushunchasi “iqtisodiy o‘sish” tushunchasidan kengroqdir. Iqtisodiyot mahsulotning miqdoriy kengayishi bilan amalga oshadi va tor ma’noda o‘sish bilan birga bo‘ladigan sifat jihatlarini o‘z ichiga oladi.


Iqtisodiy salohiyat iqtisodiy kategoriya sifatida murakkab, ko‘p qirrali, jamlangan va konsolidatsiyalangan iqtisodiy jarayonlarni, aloqalarni va munosabatlarni aks ettiruvchi tizimdir. Ilmiy adabiyotlarda “potensial” atamasi turli xil ma’noga, jumladan, “kuch”, “kuch-quvvat”, “maksimal imkoniyat”, “chegara” kabi tushunchalarni anglatadi. Ayrim xorij iqtisodchilari tomonidan “Iqtisodiy salohiyat – bu ko‘p shaklli texnik potensial”, – deb ta’rif berilgan. [2]

“Potensial (lotincha “potentia” – kuch) – har qanday muammoni hal qilish, maqsadga muvofiq ishlash uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan manbalar, imkoniyatlar, vositalar, zaxiralar, shaxs, jamiyat, davlatning ma’lum bir sohadagi imkoniyatlaridir. Korxonalarning moliyaviy hisobotlar yordamida iqtisodiy salohiyatni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi quyidagilar hisoblanadi”:[3]

1) Resurs salohiyati;
2) Ishchanlik salohiyati;
3) Ishlab chiqarish salohiyati;
4) Moliyaviy salohiyat.

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti —

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”



1-rasm. Korxonaning kompleks iqtisodiy salohiyatining tarkibiy qismlari[138].

“2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonni yanada rivojlantirishning Taraqqiyot strategiyasida ham makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, turli mulkchilikka asoslangan korxonalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash hamda ularning eksport salohiyatini oshirish asosiy vazifalar qilib belgilandi. Mazkur vazifalarning amalga oshirilishi ko‘p jihatdan korxonalarni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ko‘proq investitsiyalar va yangi texnika-texnologiyalarni kiritish, marketing tizimini yaxshilash va mahsulot ishlab chiqaruvchilar uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat”.[1]


Natijalar. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy vazifalaridan biri ko‘p ukladli iqtisodiyot muhitini yaratish, mulkni haqiqiy egalari qo‘liga berish, ularga tadbirkorlik faoliyati uchun keng imkoniyatlarni yaratish bo‘ladi. Korxonalarning yuksalishida davlat har tomonlama shart-sharoitlarni yaratib berishi muhim o‘rin tutadi. Mamlakatning iqtisodiy salohiyatining o‘sishi har tomonlama korxonalarning iqtisodiy salohiyatining o‘sishi bilan bog‘liq. Shuning uchun nafaqat korxona egasi uchun, balki mamlakat uchun ham korxonalarning iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish manfaatdorligi

138 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

mavjud. Bozor iqtisodiyotining bugungi raqobat sharoitida asosiy vazifalaridan biri korxonalarning iqtisodiy salohiyatini aniqlash va ularga baho berish sanaladi.

Moddiy resurslar, nomoddiy aktivlar, mehnat resurslari va tadbirkorlik qobiliyati ko‘rsatkichlarini tahlil qilish orqali korxona iqtisodiy salohiyatini aniqlash mumkin.

Maqolada “korxona iqtisodiy salohiyati” tushunchasiga mualliflik ta’rifi berilgan. Ya’ni, “korxona iqtisodiy salohiyati” tushunchasi iqtisodiy mazmuni bozor sharoitida moddiy, nomoddiy aktivlar, mehnat resurslari va tadbirkorlik qobiliyati omillari orqali baholanadi(2-rasm).



2-rasm. Korxonaning iqtisodiy salohiyat tushunchasi va uning tarkibiy qismlari

Tadqiqot ishida iqtisodiy salohiyatini baholashning statistik ko‘rsatkichlar tizimining takomillashtirilgan uslubiyati ishlab chiqilgan bo‘lib, u quyidagilardan iborat.

1. Fondlarning faollik indeksi

$$F_{Faollik} = \frac{\text{Faol asosiy fondlar}}{\text{Umumiy asosiy fondlar}}$$

2. Fondlarning yangilanish indeksi

$$F_{Yangilanish} = \frac{\text{Yangi fondlar qiymati}}{\text{Umumiy asosiy fondlar}}$$

3. Fondlardan foydalanish samaradorligi indeksi

$$F_{Rentabelligi} = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Asosiy fondlarning o‘rtacha yillik qiymati}}$$

4. Fondlar bilan qurollanganlik indeksi

$$F_{\text{Qurollanganlik}} = \frac{\text{Asosiy fondlarning o‘rtacha yillik qiymati}}{\text{O‘rtacha ishchilarsoni}}$$

5. Quvvatlardan foydalanish indeksi

$$F_{\text{Foydalanish}} = \frac{\text{Haqiqiy ishlab chiqarish hajmi}}{\text{O‘rtacha yillik ishlab chiqarish quvvati}}$$

6. Rejalashtirilgan vaqt fondidan foydalanish indeksi

$$F_{\text{Vaqt}} = \frac{\text{Ishlatilgan vaqt}}{\text{Rejalashtirilgan vaqt}}$$

7. Sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish indeksi

$$F_{\text{Sifatli mahsulot}} = \frac{\text{Sifatli mahsulotlar}}{\text{Umumiy mahsulot}}$$

8. Ishlab chiqarish xodimlari indeksi

$$M_{\text{ishlab chiqarish}} = \frac{\text{Ishlab chiqarish xodimlari}}{\text{Umumiy xodimlar}}$$

9. Malakali xodimlar indeksi

$$M_{\text{Malakali}} = \frac{\text{Malakali xodimlar}}{\text{Umumiy xodimlar}}$$

10. Oliy ma’lumotli xodimlar indeksi

$$M_{\text{Oliy ma‘lumot}} = \frac{\text{Oliy ma’lumotli xodimlar}}{\text{Umumiy xodimlar}}$$

11. Texnologik yangilanish indeksi

$$I_t = \frac{\text{Ishlab chiqarishdagi texnologik yangi asosiy vositalar}}{\text{Jami ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar}}$$

12. Avtomatlashtirilgan asosiy vositalar indeksi

$$I_a = \frac{\text{Avtomatlashtirilgan asosiy vositalar}}{\text{Jami asosiy vositalar}}$$

13. Sifatli mahsulotlar indeksi

$$I_s = \frac{\text{Sifatli mahsulotlar}}{\text{Umumiy mahsulot}}$$

14. Innovatsiyaga qilingan xarajat indeksi

$$I_{ix} = \frac{\text{Innovatsiyaga qilingan xarajat}}{\text{Jami xarajat}}$$

15. Yangi mahsulotlar soni

$$I_{ym} = \frac{\text{Yangi mahsulotlar soni}}{\text{Jami mahsulotlar soni}}$$

16. Malakali xodimlar indeksi

$$I_{mx} = \frac{\text{Malakali xodimlar soni}}{\text{Jami xodimlar soni}}$$


17. Ragamlashtirilgan hisobotlar indeksi

$$I_r = \frac{\text{Ragamlashtirilgan hisobotlar soni}}{\text{Jami hisobotlar soni}}$$

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Turli mulkchilik shakliga asoslangan korxonalar iqtisodiy salohiyatini baholashning yuqorida keltirilgan 17 ta statistik ko‘rsatkichlar moddiy resurslar, nomoddiy aktivlar mehnat resurslari va tadbirkorlik qobiliyatini yaxlit bir tizimda baholashga imkon beradi.

Texnologik salohiyatdan foydalanish indekslari va mehnat unumdorli indekslarini aniqlashda yuqorida keltirilgan 10 ta statistik ko’rsatkichlardan



foydalanish mumkin.

4-rasm. Sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini texnologik salohiyatdan foydalanish indekslari va mehnat unumdorligi indekslari orqali statistik baholash uslubiyati139

Bu indekslar o‘tgan va joriy davrlar uchun alohida aniqlanadi va individual indekslar hisoblab chiqiladi. Barcha indekslarning o‘rtacha qiymati birdan kichik bo’lsa, korxona iqtisodiy salohiyatiga texnologik salohiyatdan foydalanish indekslari va mehnat unumdorligi indekslari salbiy ta‘sir qiladi deb xulosa chiqariladi. Agar barcha indekslarning o‘rtacha qiymati birdan katta bo‘lsa, korxona iqtisodiy salohiyatiga texnologik salohiyatdan foydalanish indekslari va mehnat unumdorligi indekslari ijobiy ta‘sir qiladi deb xulosa chiqariladi. Texnologik salohiyatdan foydalanish indekslari va mehnat unumdorli indekslarini korxona iqtisodiy salohiyatiga ta‘sirini statistik baholash uslubiyati 4-rasmda taklif qilingan

Xulosa. Sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini baholashda tadbirkorlik qobiliyati salohiyati inobatga olinishi kompleks iqtisodiy salohiyatga to’g’ri statistik baho berishiga olib beladi. Shuningdek, maqolada taklib qilinayotgan sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini texnologik salohiyatdan foydalanish indekslari va mehnat unumdorligi indekslari orqali statistik baholash uslubiyati salbiy ta’sirlar va ijobiy ta’sirlarni o’rganishga katta yordam beradi.

139 Muallif tomonidan tuzilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni // www.lex.uz.

2. Minhyun L.,Taehoon H., Kwangbok J., Jimin K. A bottom-up approach for estimating the economic potential of the rooftop solar photovoltaic system considering the spatial and temporal diversity // Applied Energy, 2018. Doi: https://doi.org/10.1016/j.apenergy.2018.09.176

3. Jalolov I.I. Korxona iqtisodiy salohiyatining statistik tahlil qilish usullarini takomillashtirish. Iqtisod. fan. b. fals. dok. … diss. – Toshkent, 2021.

4. Balakrishnan N. Statistiks for Industry and Technology. – Hamilton, Canada: McMaster University, 2006. – 17 p

IQTISODIY
STATISTIKA KAFEDRASI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti